



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligida mehnatni muhofaza qilish yo‘nalishi bo‘yicha Doimiy faoliyat ko‘rsatuvchi komissiya tarkibini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2023-yil 5-iyundagi 149-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan Mehnatni muhofaza qilish qilish bo‘yicha ishlarni tashkil etish to‘g‘risida va Mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha o‘qitish va bilimlarini sinovdan o‘tkazish to‘g‘risidagi nizomlarga muvofiq Maktabgacha va maktab ta’limi tizimida faoliyat yuritayotgan xodimlarni mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha o‘qitish va bilimlarini sinovdan o‘tkazish ishlarini tashkil etish hamda mehnat sharoitlari holati va mehnatni muhofaza qilish yo‘nalishi yuzasidan 3 bosqichli nazorat tekshiruvini (monitoring) olib borish maqsadida **buyuraman:**

1. Quyidagilar:

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar hamda viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari, vazirlik tasarrufidagi tashkilotlar va muassasalarda xodimlarni mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha o‘qitish va bilimlarini sinovdan o‘tkazish ishlarini tashkil etish hamda mehnat sharoitlari holati va mehnatni muhofaza qilish yo‘nalishi bo‘yicha 3 bosqichli nazorat tekshiruvini (monitoring) olib borish yuzasidan Doimiy faoliyat ko‘rsatuvchi komissiya (keyingi o‘rinlarda - Doimiy faoliyat ko‘rsatuvchi komissiya) tarkibi 1-ilovaga muvofiq;

xodimlarni mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha o‘qitish dasturi 2-ilovaga muvofiq;

2023-yilda Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar hamda viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari, vazirlik tasarrufidagi tashkilotlar va muassasalarda Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlariga rioya etilishi, mehnat sharoitlari holati va mehnatni muhofaza qilish yo‘nalishi bo‘yicha 3 bosqichli nazorat tekshiruvini (monitoring) o‘tkazish reja-jadvali 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Doimiy faoliyat ko‘rsatuvchi komissiyaga quyidagilar yuklatilsin:

xodimlarni mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha o‘qitish ishlarini tashkil etish;

xodimlarni mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha bilimlarini belgilangan reja-jadvali asosida tekshiruvdan o‘tkazish;

mehnatni muhofaza qilish bo'yicha bilimlarini tekshiruvdan o'tkazishda xodimning bilimi qoniqarsiz deb topilgan taqdirda, ikki haftadan so'ng qayta bilimni tekshiruvdan o'tkazish;

mehnatni muhofaza qilish imtihonlarida qoniqarsiz javob bergan xodim, shuningdek, imtihonga kelishdan bo'yin tovlagan rahbarlar va mutaxassislar hamda texnik xodimlarga O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2023-yil 5-iyundagi 149-son buyrug'i bilan tasdiqlangan Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari, vazirlik huzuridagi agentliklar va respublika tashkilotlarda Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha o'qitish va bilimlarini sinovdan o'tkazish to'g'risidagi nizamning 33- va 35-bandlariga muvofiq chora ko'rish;

mehnat sharoitlari holati va mehnatni muhofaza qilish yo'nalishi bo'yicha 3 bosqichli nazorat tekshiruvini (monitoring) o'tkazish davomida mehnatni muhofaza qilish ishlarini takomillashtirish, shuningdek, ish joylarida qulay va xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratishga qaratilgan tashkiliy tadbirlarni belgilash bo'yicha amaliy yordam ko'rsatish;

tizimdagi har bir hududiy maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari hamda vazirlik tasarrufidagi tashkilotlar va muassasalarda mehnat sharoitlari holati va mehnatni muhofaza qilish yo'nalishi bo'yicha o'tkazilgan 3 bosqichli nazorat tekshiruvini (monitoring) natijalari yuzasidan taqdimnoma rasmiylashtirish.

3. Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri, Toshkent shahar hamda viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari boshliqlari, vazirlik tasarrufidagi tashkilotlar va muassasalar direktorlari O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2023-yil 5-iyundagi 149-son buyrug'i bilan tasdiqlangan Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari, vazirlik huzuridagi agentliklar va respublika tashkilotlarda mehnatni muhofaza qilish ishlarini tashkil etish to'g'risida nizomga asosan 3-kun muddat ichida Doimiy faoliyat ko'rsatuvchi komissiya tarkibi tuzilganligi, shuningdek, ushbu nizomga asosan mehnatni muhofaza qilish ishlari tashkillashtirilganligi to'g'risida vazirlikning Mehnatni muhofaza qilish bo'limi bo'yicha muhandis (X.Xamidov)ga hisobot taqdim etsin.

4. Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasi (Z.Togayeva)ga ushbu buyruq bilan tasdiqlangan reja-jadvalga asosan Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Toshkent shahar hamda viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari, vazirlik tasarrufidagi tashkilotlar va muassasalarda 3 bosqichli nazorat tekshiruvini (monitoring)da ishtirok etuvchi Doimiy faoliyat ko'rsatuvchi komissiya a'zolarini hududlarga xizmat safariga yuborilishi yuzasidan hujjatlarni rasmiylashtirish vazifasi yuklatilsin.

5. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining 2022-yil 14-iyuldagi "Xalq ta'limi vazirligida mehnatni muhofaza qilish yo'nalishi bo'yicha Doimiy faoliyat ko'rsatuvchi komissiyasi tarkibini tuzish to'g'risida"gi 226-sonli buyrug'i o'z kuchini yo'qotgan deb topilsin.

6. Devonxona (D.Isxakova) ushbu buyruqni boshqarma va bo'limlar, hududiy maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari, vazirlik tasarrufidagi tashkilotlar va muassasalarga yetkazsin.

7. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazir o'rinbosari T.Komilov zimmasiga yuklansin.

Vazir



X.Umarova

Toshkent sh.,
2023-yil "12"- iyul
202-son

**Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar hamda viloyatlar
maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari, vazirlik tasarrufidagi
tashkilotlar va muassasalarda xodimlarni mehnatni muhofaza qilish
bo‘yicha o‘qitish va bilimlarini sinovdan o‘tkazish ishlarini tashkil
etish hamda mehnat sharoitlari holati va mehnatni muhofaza qilish
yo‘nalishi bo‘yicha 3 bosqichli nazorat tekshiruvini (monitoring)
olib borish yuzasidan Doimiy faoliyat ko‘rsatuvchi komissiya
TARKIBI**

1. T.Komilov - Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri
o‘rinbosari, *Komissiya raisi*
2. J.Shamshiyev - Vazir kotibiyati boshlig‘i, *Komissiya raisi*
o‘rinbosari
3. A.Xolmuhamedov - Kasaba uyushmasi qo‘mita raisi, *a‘zo*
4. Z.Togayeva - Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasi
boshlig‘i, *a‘zo*
5. X.Xamidov - Mehnatni muhofaza qilish bo‘limi bo‘yicha
muhandis – bosh mutaxassisi, *a‘zo*
6. D.G‘aniyev - Ta’lim tashkilotlari mulkidan samarali
foydalanish bo‘limi boshlig‘i, *a‘zo*
7. S.Maxmayev - Xo‘jalik bo‘limi bosh mutaxassisi, *a‘zo*

*Izoh: Uzrli sabablarga ko‘ra komissiya ishida qatnasha olmagan Doimiy faoliyat
ko‘rsatuvchi komissiya a‘zosining o‘rniga shu boshqarmaning boshqa mutaxassisi qatnashish
huquqiga ega.*

**Xodimlarni mehnatni muhofaza qilish bo'yicha o'qitish
DASTURI**

T/r	Mavzular nomi	O'qish soatlari	Mas'ullar
1.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 22-sentabrdagi 410-sonli "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni.	2	Doimiy faoliyat ko'rsatuvchi imtihon komissiyasi
2.	Korxonalarda mehnatni muhofaza qilish ishlarini tashkil etish to'g'risida.	2	
3.	Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha yo'riqnomalarni ishlab chiqish tartibi hamda xodimlarni o'qitish va bilimlarini sinovdan o'tkazish to'g'risida.	2	
4.	Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 6-iyundagi 286-son qarori bilan tasdiqlangan "Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni va xodimlar salomatligining boshqa xil zararlanishini tekshirish va hisobga olish to'g'risida" gi nizom haqida.	2	
5.	Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 11-fevraldagi 60-son qarori bilan tasdiqlangan "Xodimlarga ularning mehnat vazifalarini bajarish bilan bog'liq holda jarohatlanishi, kasb kasalliklariga chalinishi yoki salomatlikning boshqa xil shikastlanishi tufayli yetkazilgan zararni to'lash qoidalari" to'g'risida.	2	
6.	Vazirlik tomonidan tasdiqlangan ofis xodimlari uchun mehnatni muhofaza qilish, shaxsiy kompyuterda xavfsiz ishlash qoidalari, elektr texnik va yong'in xavfsizligi qoidalari bo'yicha yo'riqnomalar to'g'risida.	2	
7.	Jabrlanuvchiga birinchi yordam ko'rsatish usullari to'g'risida.	2	
8.	Favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik ko'rish nazariy va amaliy bilim berish to'g'risida.	2	

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining
2023-yil “12”- iyuldagi
202-sonli buyrug‘iga
3-ILOVA

2023-yilda Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar hamda viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari, vazirlik tasarrufidagi tashkilotlar va muassasalarda Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlariga rioya etilishida, mehnat sharoitlari holati va mehnatni muhofaza qilish yo‘nalishi bo‘yicha 3 bosqichli nazorat tekshiruvini (monitoring) o‘tkazish
REJA-JADVALI

T/r	3 bosqichli nazorat tekshiruvini (monitoring) o‘tkaziladigan obyekt	iyul	avgust	sentabr	oktabr	noyabr
1.	Maktabgacha va maktab ta’lim vazirligi markaziy apparati boshqarma va bo‘linmalari					
	Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti					
	A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o‘rgatish milliy-tadqiqot instituti					
	Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi (Toshkent viloyati)					
	Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi					
2.	Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi					
	Toshkent shahrida “A.I.Gersen nomidagi Rossiya davlat pedagogika universiteti” Federal davlat budjeti oliy ta’lim muassasasi filiali					
	Respublika “Mehribonlik” uylari sog‘lomlashtirish oromgohi					

	Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti				
	«Yangi O‘zbekiston» universiteti				
	Pedagogika kolleji (Toshkent viloyati)				
	Toshkent viloyati maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi				
	“Barkamol avlod” respublika bolalar maktabi				
3.	Maktabgacha ta’lim agentligi				
	Maktabdan tashqari ta’lim muassasalari (Toshkent shahri)				
	“Mehrlil maktab” davlat ta’lim muassasasi				
	Respublika o‘quvchi-yoshlar markazi				
	Sirdaryo viloyati maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi				
4.	Vazirlik muassisligidagi gazeta va jurnallar tahririyatlari				
	Toshkent shahrida Puchon universiteti				
	“Renessans” bolalar sog‘lomlashtirish oromgohi				
	Jizzax viloyati maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi				
5.	Axborot va pedagogika texnologiyalari innovatsion markazi MCHJ				
	“Ta’minot va logistika xizmati” DUK				
	“Innovatsiya, texnologiya va strategiya markazi” DUK				
	O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi				
	Qashqadaryo viloyati maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi				

